

	<p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>4. O'zbekiston Respublikasi qonuni: Rasmiy statistika to'g'risida. 2021 yil 11 avgustda qabul qilingan.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 31 iyuldagi PQ-31655 qarori.</p> <p>6. Soatov N., Nabiyeu X., Nabiyeu D., Tillaxo'jayev S. Statistika. Darslik. T.: TDIU, 2009y.</p> <p>7. Abdullayev Yo., Pardayev M.Q., Xudoyberdiyev U., Aliyev B. Statistika. O'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya", 2011y.</p> <p>8. Xudayberdiyev U. va boshqalar. Statistika, O'quv-uslubiy qo'llanma. I-qism, Samarqand, SamISI 2011.</p> <p>9. Xudayberdiyev U. va boshqalar. Statistika, O'quv-uslubiy qo'llanma. II-qism, Samarqand, SamISI 2014.</p> <p>10. Статистика. Учебник./ под ред. И.И. Елисеевой. - М.:Проспект, 2010.</p> <p>Internet saytlari.</p> <p>www.stat.uz.</p> <p>www.buhgalt.ru.</p> <p>www.zivonet.uz.</p> <p>www.books/bankir.ru.</p>
8	<p>Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2024-yil 29-avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.</p> <p>(№ 80-18-95/3)</p>
9	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Xudayberdiyev U.X.- SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası dotsenti, i.f.n.;</p> <p>Rahimov H.A. - SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası dotsenti, PhD.;</p> <p>Babanazarova S.A. - SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası o'qituvchisi, PhD.;</p> <p>O'roqov F.O. - SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası o'qituvchisi.</p>
10	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Pardayeva O.M.- TDIUSF "Oziq ovqat va qishloq iqtisodiyoti" kafedrası mudiri, PhD., (turdosh OTM)</p> <p>Usmonova D.Q.- Samarqand Davlat universiteti dotsenti, i.f.n. (turdosh OTM)</p>

5

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



2024 yil " 29 " 08

Ro'yxatga olindi: №BD-60410400-1.13

2024 yil " 29 " 08

STATISTIKA
fanining
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000	– Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishlari:	60410400	– moliya va moliyaviy texnologiyalar
	60410500	– bank ishi va auditi
	60411500	– biznes tahlil

Fan/modul kodi STAT204		O'quv yili 2024-2025	Semestr 4-semestr	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Semestr	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Statistika	4-semestr	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o'rgatish, bozor hodisalari o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini ochish uchun korrelyatsion-regression tahlilni qo'llay olish, statistik kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarni kompyuter dasturlari yordamida yechish, olingan natijalar bo'yicha xulosa va takliflar qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va roli haqida chuqur bilimga ega bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi sodir bo'ladigan hodisalar to'g'risidagi ilmiy va tajribaviy gipotezalarni statistik tekshirish, statistika amaliyotida qo'llaniladigan hisobot shakllarini to'ldirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishni ta'minlash va ushbu sohada vujudga kelishi mumkin bo'lgan amaliy muammolarni echishda statistik usullarhamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanaolishni o'rgatishdan iborat.</p>				
3	<p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1 – modul. Statistikaning umumiy nazariyasi</p> <p>1-mavzu. Statistikaning predmeti, usullari va statistik kuzatish.</p> <p>Statistika to'g'risida tushuncha. Uning shakllanishi va rivojlanishi va rivojlanishida buxgalteriya hisobi, ehtimollar nazariyasi fanlarining ahamiyati.</p> <p>Statistika fanining predmeti va usullari. Statistikaning nazariy asoslari. Statistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Statistikaning paydo bo'lish tarixi va rivojlanishi. Statistik to'plam, to'plam birligi, farqlanuvchi belgi, statistik vazn, statistik ko'rsatkichlar va boshqalar. Statistikaning o'ziga xos umum-ilmiy va maxsus usuliari.</p> <p>Statistika faoliyatining tashkil etilishi, uning O'zbekiston Respublikasida huquqiy asoslari.</p> <p>Statistik kuzatish to'g'risida tushuncha, uning asosiy tashkiliy shakllari va turlari. Statistik kuzatishning dasturiy-uslubiy va tashkiliy masalalari.</p> <p>Statistik kuzatishda – statistikaning asosiy tamoyillari: ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik, dolzarblik, qulaylik, oshkoralik, va shu singarilar. Statistikaning asosiy tamoyillarini ta'minlashdagi asosiy vazifalari. Statistik hisobot, registr va maxsus tashkil etiladigan statistik kuzatishlar. Statistik kuzatishda yo'l</p>				

	<p>23. Aylanma mablag'lar, ularning mazmuni va tarkibi.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan individual topshiriqlar variantlarini ishlab topshirishlari tavsiya etiladi</p>
4.	<p>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigankompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Statistika predmeti va metodining o'ziga xos xususiyatlari; ommaviy hodisa, uning muhim belgilari; statistika usuli; statistik tadqiqot va uning bosqichlari; hozirgi zamon O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi va xalqaro statistika; statistik kuzatishning mohiyati va ahamiyati; statistik kuzatishni tashkil etish tamoyillari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; • Variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblashni; asimmetriya koeffitsenti va uni aniqlash tartibini; taqsimot eksnessi, uning mohiyati va darajasini miqdoriy baholashni; tanlama kuzatish, uning mazmuni, qo'llanish sabablari va afzalliklarini; tanlama reprezentativligini ta'minlovchi tanlash usullarini; korrelyation-regression tahlil usullarini qo'llash shart-sharoitlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • Statistika amaliyotida qo'llaniladigan iqtisodiy indekslarni hisoblash; YaIM deflyatori va agregat indekslaridan foydalanish; iste'mol baholari indeksini tuzish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>; • Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda statistik ko'rsatkichlarni qo'llash; statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilish; statistik ko'rsatkichlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini statistik baholash; statistik ma'lumotlar natijalarini prognoz qilish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
5.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaoi keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalarh; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
7.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shodiev X. va Xabibullaev I. Statistika: darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019.-454 b. 2. Xudayberdiev U.X. Statistika. O'quv qo'llanma. Samarqand, SamISI, 2019. 3. Xudayberdiev U.X., Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A. Statistika. Darslik. Samarqand, SamISI, 2022.

2. Statistik ma'lumotlarni jamlash va guruhlash va jadval va grafiklarda aks ettirish.
3. Statistika ko'rsatkichlarini ifodalash shakllari
4. Statistik ma'lumotlarning o'rtacha miqdorlarini aniqlash va variatsiya koeffitsientini hisoblash zaruriyati
5. Statistik tadqiqotlarda tanlab kuzatishning qo'llanilishi
6. O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish usullari
7. Dinamika qatorlarining tahlil ko'rsatkichlari.
8. Iqtisodiy indekslarning tasniflanishi (klassifikayasi)
9. Aholining harakat ko'rsatkichlari statistikasi
10. Mehnat resurslari va ularning harakat ko'rsatkichlari.
11. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblash usullari.
12. Milliy boylik tarkibi va dinamikasi

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mosravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Statistikaning paydo bo'lish tarixi va rivojlanishi.
2. Statistikaning o'ziga xos umum-ilmiy va maxsus usullari.
3. Statistik kuzatishning dasturiy-uslubiy va tashkiliy masalalari.
4. Statistik hisobot, registr va maxsus tashkil etiladigan statistik kuzatishlar.
5. Statistik hisobot, registr va maxsus tashkil etiladigan statistik kuzatishlar.
6. Statistik guruhlash usuli, uning ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar vajarayonlarni o'rganishda ahamiyati.
7. Statistik ko'rsatkichlarga qo'yilgan asosiy talablar: miqdorlarning ishonchiligi, taqqoslama holati va aniqligi.
8. O'rtacha miqdorlarni qo'llashning asosiy shartlari.
9. O'rtacha miqdorlarning tasnifi: analitik va tuzilmaviy o'rtachalar.
10. Tuzilmaviy o'rtachalardan statistik tadqiqotlarda foydalanilishi
11. Tanlama to'plamni tashkil qilish usullari.
12. Kichik tanlama kuzatish mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari.
13. Korrelyatsion-regression tahlil – o'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish usullari.
14. Dinamika tendensiyalarini aniqlash usullari.
15. Mavsumiylik to'g'risida tushuncha va uni baholash.
16. Iqtisodiy indekslarning tasniflanishi (klassifikayasi).
17. Dunyo aholi dinamikasi va istiqboldagi sonini prognozlash.
18. Korxonalarda xodimlar statistikasi ko'rsatkichlari.
19. Mehnat unumdorligi to'g'risida tushuncha va uni statistik o'rganishning ahamiyati.
20. Milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish sohasini chegaralash.
21. YAIM hajmini hisoblash usullari.
22. Asosiy kapital tasnifi, baholash va amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari.

qo'yiladigan xatolar va ularning turlari. Statistik kuzatish ma'lumotlarini qabul qilish va tekshirish usullari.

Statistik hisobotlarni buzib ko'rsatganlik, statistik ma'lumotlarni yashirganlik uchun javobgarlik. O'zbekiston Respublikasida statistika kuzatuvini amalga oshiruvchilar: davlat kuzatuv, tarmoq kuzatuv va boshqalar.

2-mavzu. Statistik jamlash va guruhlash

Statistik jamlash, uning mazmuni. Jamlashning turlari va xususiyatlari. Statistik guruhlash usuli, uning ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o'rganishda ahamiyati. Guruhlash turlari: oddiy va murakkab (ko'p o'lchovli) guruhlash, tipologik, tuzilmaviy (strukturaviy) va analitik guruhlashlar. Guruhlarni tuzish prinsiplari (qoidalari). Guruhlash belgisi. Guruhlar soni va oralig'i. Guruhlash usuli yordamida yechiladigan masalalar. Taqsimot qatorlarining mohiyati, tarkibiy unsurlari va turlari. Atributiv variatsion, diskret va oraliqli qatorlar. Variatsion qatorlarni tuzish masalasi.

Statistik jadvallarning mohiyati, ahamiyati. Statistik jadval turlari. Oddiy, guruhviy va kombinatsion jadvallar. Statistik jadvallarni o'qish va tahlil qilish usullari. Statistik grafiklar tushunchasi, turlari, ahamiyati va tuzish qoidalari. Statistik grafiklar to'g'risida tushuncha. Grafiklarning tarkibiy unsurlari: masshtab, shkala va koordinatalar tizimi. Sifat belgiga ega bo'lgan ma'lumotlarni grafikda tasvirlash. Ustunli grafik, doiraviy diagramma. Miqdor belgiga ega bo'lgan ma'lumotlarni grafikda tasvirlash. Nuqtali grafik, band va barg grafigi, gistogramma.

3-mavzu. Statistika ko'rsatkichlari

Statistik ko'rsatkichlar to'g'risida tushuncha, ularning mohiyati va ahamiyati. Statistik ko'rsatkichlarning turlari. Statistik ko'rsatkichlarga qo'yilgan asosiy talablar: miqdorlarning ishonchlilik, taqqoslama holati va aniqligi.

Statistika ko'rsatkichlarini ifodalash shakllari. Mutloq miqdorlar, ularning turlari va o'lchov birliklari. Nisbiy miqdorlar, ularning ahamiyati, ifodalanish shakllari va turlari. Nisbiy miqdorlarning hisoblanishi. Mutloq va nisbiy miqdorlarning birgalikda qo'llanilish imkoniyatlari va zaruriyati.

4-mavzu. O'rtacha miqdorlar

O'rtacha miqdorlar to'g'risida tushuncha, ularning mohiyati va ahamiyati. O'rtacha miqdorlarni qo'llashning asosiy shartlari.

O'rtacha miqdorlarning tasnifi: analitik va tuzilmaviy o'rtachalar. Arifmetik va o'rtacha garmonik, ularning turlari va hisoblanishi. O'rtacha miqdorlarning matematik xossalari. Shartli "payt" (soddalashtirib yechish) usuli bilan o'rtachalarni hisoblash.

Tuzilmaviy o'rtachalar. Moda, mediana va boshqalar. Tuzilmaviy o'rtachalardan statistik tadqiqorlarda foydalanilishi. Mediana mohiyati va uni taqsimot qatorlarida hisoblash tartibi. Moda va mediana intervalli variatsion qatorlarda hisoblash.

To'plamda biror belgi qiymatlarining variatsiyasi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning sifat aniqligi va xususiyatlari. Variatsiyaning miqdoriy

o'lovchlari: variatsion kenglik, bosh to'plam dispersiyasi va standart chetlanishi, tanlama to'plam dispersiyasi va standart chetlanishi, variatsiya koeffitsientlari.

5-mavzu. Statistik tadqiqotlarda tanlab kuzatish

Tanlab kuzatish mohiyati, uni qo'llash sabablari va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati. Tanlab kuzatish bosqichlari. Bosh va tanlama to'plam. Tanlama to'plamni tashkil qilish usullari.

Tanlab kuzatish reprezentativlik (vakillik) xatosi. O'rtacha va chegaralangan xatolar. Zaruriy tanlama to'plam hajmini aniqlash. Tanlab kuzatish natijalarini baholash va ularni bosh to'plamga yoyish. Kichik tanlama kuzatish mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari.

6-mavzu. Xodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni statistik o'rganish

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni statistik o'rganishning ahamiyati. O'zaro bog'lanishlarning turlari. Xodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlashning oddiy (sodda) usullari.

Korrelatsion-regression tahlil – o'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish usullari. Regressiya tenglamasining shaklini tanlash. Juft korrelyatsiya, to'g'ri chiziqli regressiya tenglamasi va korrelyatsiya koeffitsientini aniqlash.

Ko'p omilli korrelyatsiya. Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsienti. Ko'p omilli korrelyatsiyaning iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarining omilli tahlilida ko'rsatkichning istiqbolini baholashda qo'llanishi.

7-mavzu. Dinamikani statistik o'rganish usullari

Dinamika qatorlari to'g'risida tushuncha, ularning turlari va dinamika qatorlarini tuzishdagi asosiy qoidalar: zamon, makon va uslubiy masalalar.

Dinamika qatorlarining o'rtacha darajasi va tahlil (analitik) ko'rsatkichlari: mutloq o'zgarish, o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati, bir foiz o'sish sur'atining mutloq mazmuni.

Dinamika tendensiyalarini aniqlash usullari. Dinamika qatorlari darajasining tarkibiy qismlari (komponentlari): trend, mavsumiy va tasodifiy o'zgaruvchanlik. Dinamika qatorlarini tekislash usullari: qatorlarni yagona asosga keltirish, sirg'anma o'rtacha darajalarni hisoblash va analitik usul.

Mavsumiylik to'g'risida tushuncha va uni baholash. Mavsumiylik indekslari. Ekstrapolyatsiya va interpolyatsiya to'g'risida tushuncha. Dinamika qatorlari asosida yaqin va uzoq kelajakni prognoz qilish.

8-mavzu. Iqtisodiy indekslar

Iqtisodiy indekslar to'g'risida tushuncha, ularning mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy indekslarning tasniflanishi (klassifikatsiya). Individual va umumiy indekslar.

O'rtacha indekslar. O'rtacha arifmetik va garmonik indekslar. O'rtacha indekslarning hisoblanishi.

Zanjirsimon va bazis indekslari. Indekslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Doimiy tarkibli, o'zgaruvchan tarkibli va tarkibiy o'zgarishlar indekslar va ularning hisoblanilishi va belgilanilishi.

2-modul. Iqtisodiy statistika

9-mavzu. Aholi statistikasi

Aholi statistikasining vazifalari va ahamiyati. Aholini ro'yxatdan o'tkazish. Doimiy va mavjud aholi soni. Aholi sonining o'rtachasini hisoblash.

Aholi soni va tarkibi statistikasi. Aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlari: umumiy, xususiy va maxsus ko'rsatkichlar. Aholining mexanik harakati ko'rsatkichlari. Aholi harakatining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. O'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari. Aholining kelajakdagi sonini bashoratlash (prognozlash). Aholining istiqboldagi sonini hisoblash global va yoshini siljtish usullari yordamida hisoblash. Dunyo aholi dinamikasi va istiqboldagi sonini prognozlash.

Aholi turmush darajasi tushunchasi. Aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi.

10-mavzu. Mehnat bozori statistikasi

Mehnat bozori statistikasining vazifalari va ahamiyati. Iqtisodiy faol va nafaol aholi tushunchasi hamda ularning tarkibi. Mehnat resurslari va ularning harakat ko'rsatkichlari. Aholining ish bilan band aholi va ishsizlik statistikasi ko'rsatkichlari.

Xodimlarning funksional vazifalariga asosan guruhlanishi. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning mulk shakli, faoliyat turlari va hududlar bo'yicha taqsimlanishi. Ro'yxatdagi xodimlar o'rtacha sonini hisoblash.

Korxonalarda xodimlar statistikasi ko'rsatkichlari. Xodimlar ish vaqti fondlari va ulardan foydalanish koeffitsientlari. Mehnat unumdorligi to'g'risida tushuncha va uni statistik o'rganishning ahamiyati.

11-mavzu. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi

Milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish sohasini chegaralash. YAIM – mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi ekanligi. Ishlab chiqarish hajmini aniqlash prinsiplari (qoidalari) va baholash turlari: omil, asosiy, ishiab chiqaruvchi va xaridor baholari. YAIM hajmini hisoblash usullari. YAIM hajmini ishlab chiqarish usulida hisoblash. YAIM hajmini daromadlarni taqsimlash usulida hisoblash.

12-mavzu. Milliy boylik statistikasi

Milliy boylik to'g'risida tushunchasi, uning hajmi, tarkibi va dinamikasi.

Asosiy kapital tasnifi, baholash va amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarning holati, harakati va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari.

Aylanma mablag'lar, ularning mazmuni va tarkibi. Aylanma fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar *(fan bo'yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo'ljallanmagan)*

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Statistik kuzatish ma'lumotlarini qabul qilish va tekshirish usullari